



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING

TAFAKKUR VA TALQIN

MAVZUSIDARESPUBLIKA
MIQYOSIDAGI ILMIIY-AMALIIY
ANJUMAN TO'PLAMI



Бухоро-2021

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
MAGISTRATURA BO‘LIMI**

**IQTIDORLI TALABALAR, MAGISTRANTLAR, TAYANCH
DOKTORANTLAR VA DOKTORANTLARNING**

TAFAKKUR VA TALQIN

mavzusida

**Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy
anjuman to‘plami**

2021 yil, 27-may

Tahrir hay'ati:

O.X.Xamidov	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
M.I.Daminov	Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent
O.S. Qahhorov	Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (DSc), dotsent
S.Q. Qaxxorov	Pedagogika fanlari doktori, professor
D.R. Djurayev	Fizika-matematika fanlari doktori, professor
A.A. Turayev	Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
M.Y. Ergashov	Kimyo fanlari nomzodi, professor
B.N.Navro'z-zoda	Iqtisodiyot fanlari doktori, professor
SH.A. Hayitov	Tarix fanlari doktori, professor
D.S. O'rayeva	Filologiya fanlari doktori, professor
S. Bo'riyev	Biologiya fanlari doktori, professor
SH.R.Barotov	Psixologiya fanlari doktori, professor
SH.SH.Olimov	Pedagogika fanlari doktori, professor
A.R.Hamroyev	Pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Mas'ul muharrir:

A.A. Turayev – magistratura bo'limi boshlig'i *f.-m.f.f.d., (PhD) dotsent*

Musahhih:

T.Sh.Ergashev – ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi bosh mutaxassisi

D.Rahmatova – magistratura bo'limi uslubshunosi

B.A.Hikmatov – magistrant

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 24-yanvardagi Oliy majlisga yo'llagan murojatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining 2020 yil 7-fevraldagi 56-F-son farmoyishiga hamda Oliy vao'rta maxsus ta'lim vazirligining 2021 yil 4-maydagi № 3/19-04/05-26 son xatiga asosan ushbu Respublika ilmiy-amaliy anjuman tashkil etildi. To'plamdaiqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy izlanishlari, tajriba almashish, sohalarda amalga oshirilayotgan ishlarnitahlil qilish va bu boradagi takliflarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy-amaliy va uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

MUNDARIJA:

I-ШЎБА
АНИҚ ВА ТАБИИЙ ФАНЛАР

5A140202 – Физика (йўналишлар бўйича)

O.X.Xamidov	<i>Muqaddima</i> 3
O.C.Қаҳҳоров, Ш.Ҳ.Тўраев	<i>Олий таълим тизимида рақобатбардош кадрлар тайёрлашнинг бошқарув самарадорлигини баҳолаш</i> 5
S.Q.Qahhorov F.Yo.Ramazonova	<i>Fizika sohasida ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirishning bugungi kundagi amaliy ahamiyati</i> 13
E.S. Nazarov, Sh.O. Sobirov	<i>Elastomeres are molecular of materials structure and macroscopic properties</i> 16
A.A. Тураев, С.М. Рахимова	<i>Фотозлектрические характеристики полевого транзистора в режиме отсечки канала</i> 21
I.I. Raxmatov, B. Sirojeva	<i>Kristallik va amorf quyosh panellarini qiyosiy solishtirish</i>27
E.S. Nazarov, Sh.A. Hamroqulova	<i>Quyosh energiyasi texnologiyalarini rivojlantirish tendensiyalari va istiqbollari</i> 31
D.R. Djurayev, A.A. Ahadov.	<i>Vodorod energiyasi va o'ta o'tkazuvchanlik</i>34
Sh.Sh. Fayziyev, Sh.Q. Nizomova	<i>Magnit moddalarning domen tuzilishi</i> 39
Sh.Sh. Fayziyev, M.A. Askarov	<i>Paxta moyida yorug'likning yutilish</i> 41
L.I. Ochilov, Z.N. Narzillayeva	<i>Quyosh chuchitgichi xossalari yonilg'i quyish shaxobchalariga qo'llashning matematik modelini hisoblash, algoritmi va dasturiy ta'minot tuzish</i> 44
И. Рахматов, И. Исмоилова	<i>Физика таълим йўналишида мустақил ишларни кредит-модуль тизимида ташкил этиш</i> 48
I.Raxmatov, S. Salimov	<i>Frenel linzasi va uning qo'llanilishi</i> 54
Э.С.Назаров, Ш.О.Собиров, И.И.Пуримов	<i>Композитларнинг техник хоссаларини тадқиқ этиш</i> 60
N.B. Yuldasheva , Sh.Q. Nizomova	<i>Modulated magnetic structures and models of their theoretical expression</i> 65
A.A. Тураев, О.Ж.Жумаев	<i>Кўп функционал датчикларда майдон транзисторларининг қўлланиши</i> 67

A.F.Ergasheva	<i>The role of handicrafts in the tourism industry..... 1316</i>
F.T. Qobilova	<i>A.Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanining inglizcha tarjimasida portret tasviri va unda aks etgan milliy xarakterning berilishi..1321</i>
H.A.Xaitov	<i>Adabiyotda kulgi uyg‘otuvchi vositalar.....1330</i>
A. S. Omarova E.I. Qosimov	<i>Aziziddin Nasafiyning hayot yo‘li va tasavvufdagi o‘rni 1334</i>
B. N. Doniyorov	<i>Smoking reduces life1339</i>
F.N.Xayriyev	<i>Dasturiy ta‘minot yaratishda agile yondashuvidan foydalanish 1341</i>
H.I.Ибатова O.U.Иброхимова	<i>Буюк рассомлар ижодида она сиймоси..... 1348</i>
Ф.Ф. Нуруллаев А.А. Азимов	<i>Миллий анъана ва қадриятлар уйғунлигида ўз-ўзини тарбиялаш 1353</i>
M.B. Sharipova	<i>Qahramonlik eposi-milliy madaniyatimiz nodir xazinasini («Alpomish» dostoni misolida) 1359</i>
M. Teshayeva	<i>Badiiy asarlarda tibbiy birliklarning qo'llanishi 1364</i>
J. Xolliyev, B.B. Amrullayev, T. M. Yusupov	<i>Asinxron motorlarda elektr energiyani tejash usullari..... 1369</i>
M.Siddiqov	<i>Tehron konferensiyasi to‘g‘risida chet el matbuotlarida bildirilgan fikrlar..... 1375</i>
Г. Дж. Аслонова	<i>Вспользование интеграционной и модульной технологии на уроках внеклассного чтения в начальных классах 1381</i>
Ж.Ф. Холлиев Б.Б. Амруллаев	<i>Стандарт ва янги сериядаги асинхрон электр двигателларнинг энергетик кўрсаткичларининг қиёсий тавсифлари 1386</i>
Ж.Ф. Холлиев Б.Б. Амруллаев А.В. Холбутаев	<i>Вентилли двигателлар ёрдамида электр юритмаларни такомиллаштириш усуллари 1393</i>
L.A Ahmadova	<i>Ma‘naviy meros barkamol avlodni tarbiyalash omili.....1397</i>
G.Eshqulova D.B. Axmedova	<i>Tez aytishlar – bolalar nutqini o‘stirishning eng samarali vositasi..... 1402</i>
X.X.Аҳмадов	<i>Хорижлик сайёҳ ва элчилар талқинида Бухоро 1407</i>

TEZ AYTISHLAR – BOLALAR NUTQINI O‘STIRISHNINING ENG SAMARALI VOSITASI

D.B. Axmedova¹, G. Eshqulova²

f.f.f.d (PhD), BuxDU katta o‘qituvchisi.¹

Buxoro davlat universiteti maktabgacha va boshlang‘ich ta‘lim fakulteti talabasi.²

Annotatsiya: Maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviyatini shakllantirishda, boshqa xalq og‘zaki ijodi janrlari qatori tez aytishlarning ham o‘rni beqiyos ekanligi ilmiy asosda yoritib berilgan. Tez aytishlar maqollar singari o‘quvchilarda faollik ko‘nikmalarini rivojlantirishi haqida fikr yuritilgan.

Tayanch so‘z va iborlar: ilm, darslik, o‘qituvchi, qofiya, tezkorlik, mavzu, ta‘lim, vatan, mahorat, alliteratsiya.

Barchamizga ma‘lumki, yaqindagina aziz bog‘chasidan chiqib, maktabga qadam qo‘ygan bolajonlarning dars jarayoniga mas‘uliyatli yondashishi, barcha mashg‘ulotlarni o‘z vaqtida bajarishi juda qiyin masala. Bunday jarayonlar hatto ular uchun zerikarli bo‘lishi mumkin (ko‘p hollarda bolalarning dars paytida uxlab qolishi bunga misoldir). Mana shunday damlarda xalq og‘zaki ijodining nodir namunalari bizga yordamga keladi. Ayniqsa, tez aytishlar bolalar nutqini o‘stirishda, epchillik va chaqqonlik ko‘nikmalarini shakllantirishda, shu bilan birga, dars jarayonlarini mazmunli va qiziqarli tashkil etishda eng samarali vositalardan biri sanaladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari tez aytishlarni juda yaxshi ko‘radi. E‘tiborli tarafi shundaki, tez aytishlar bilan boshlangan darsni bola qiziqishlar bilan kutib oladi, o‘qituvchini jon-dili bilan eshitib, beixtiyor dars jarayonlarida hammadan faol bo‘lishga harakat qiladi. Bu esa o‘qituvchining yutug‘i, albatta. Chunki o‘quvchining faolligi sabab, o‘qituvchining ta‘lim berish

Iqtidorli talabalar, magistrantlar, tayanch doktorantlar va doktorantlarning ilmiy maqolalar to'plami – 2021

sifati ancha yuqori bo'ladi. Tez aytishlar – ma'lumso'zni, so'z birikmasini yoki tovushni to'g'ri talaffuz qilishga, uni boshqa tovushlardan farqlashga o'rgatadigan, xotirani mustahkamlaydigan va nutqni o'stiradigan janr. Bu janr namunasini eshitmagan yoki bilmaydigan kimsa bo'lmasa kerak. Tez aytishlarning sehrliligi har qanday insonni o'ziga rom etadi. So'zlar takrori, uslubdagi badiiy mahorat, o'ziga xos jozibadorlik kishini zavqlantiradi, qayta-qayta aytgisi kelaveradi. Tez aytishlarda alliteratsiya (she'rda, jumlada, bandda va qisman nasriy asarlarda ham bir xil undosh tovushlarning takrorlanishi, tovushlar ohangdorligi, asosan bir xil tovushlarning takrorlanishidan hosil bo'lgan ohangdorlik) badiiy san'at turidan turidan unumli foydalanilgan. Bu esa tez aytishlarning ohangdorligini ta'minlabgina qolmay, uning badiiy qimmatini ham oshiradi. Har qanday badiiylik bilan yaratilgan jumlar esa insonga ta'sir etmasdan qolmaydi, ya'ni insonning ma'naviy olamini ijobiy sifatlar bilan boyitadi. Quyidagi tez aytishga e'tibor beradigan bo'lsak:

Dildora – Dinoraning dugonasi,

Dinora – Dilnozaning dugonasi. (1-sinf uchun darslik, 123-bet)

Bu tez aytishda kim kimning dugonasi ekanligi alliteratsiya (tavze') badiiy san'at turi orqali chiroyli tarzda ifodalangan. Yoki bo'lmasa, yana bir tez aytishga e'tiborimizni qaratsak:

Qo'ng'iroq qo'g'irchoqnikimi, qo'zichoqnikimi?(1-sinf uchun darslik, 59-bet) tez aytishini alliteratsiyaning go'zal namunasi sifatida baholashimiz mumkin. Bu tez aytishni talaffuz qilish jarayonida, o'quvchilar birmuncha qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki bu tez aytishda birgina so'rash ohangidan tashqari qofiyadosh so'zlardan (qo'g'irchoq, qo'zichoq) unumli foydalanib, qo'ng'iroqni ikkita predmetdan qaysi biriga tegishli ekanligini so'rash orqali chalg'itishga erishilgan va bu ikki predmetning o'zini ham qo'ng'iroq so'ziga qofiyadosh qilib tanlagan. Bu albatta, juda katta badiiy mahorat...

Tez aytishlarning 1-4-sinf darsliklaridagi variantlarini tahlil etish jarayonida ularning boshlang'ich sinf o'quvchilariga ta'siri va foydalarini aniqlaymiz.

Oq choynakka ko'k qopqoq,

Ko'k choynakka oq qopqoq. (1-sinf uchun darslik, 115-bet)

Bu tez aytishni hech ikkilanmasdan murakkab tez aytishlar turiga kiritishimiz mumkin. Tez aytish tarkibidagi „k”, „q” va „p” harflari o'quvchilarning tez gapirishiga nihoyatda xalaqit qiladi, buning asosiy sababi esa „q” va „p” harflarining nomutanosib joylashganligidir. O'quvchilar bu tez aytishni tez so'zlashga harakat qiladilar va natijada „qopqoq” so'zining noto'g'ri talaffuzli variantlari yuzaga keladi.

Qo'zichog'im qo'ng'ir, oq

Qo'ng'iroqli qo'zichoq. (1-sinf uchun darslik, 76-bet)

Non yasashasizmi?

Sholi sanashasizmi? (2-sinf uchun darslik, 66-bet)

Aksariyat tez aytishlarga e'tibor beradigan bo'lsak, ularda ma'no yo'q. Lekin ular yordamida nutqni o'stirish, tezkorlikka, epchillikka o'rganish mumkin. Aytaylik, yuqoridagi tez aytishda , “sholi sanashasizmi” deyilgan. Sholi sanashda hech qanday ma'no yo'q. Bunda „s” va „sh” harflari yordamida ajoyib so'z o'yini hosil qilingan.

Qorin qo'yib Qorbobo,

qo'lqopini qidirdi.

Qorqiz qalin qalpog'in

qulog'iga qo'ndirdi. (2-sinf uchun darslik, 79-bet).

Tez aytishlarning she'riy tarzda berilishi o'quvchilarning adabiyotga bo'lgan qiziqishini orttiribgina qolmay, aqliy tezkorlik qobiliyatining takomillashishiga ham sabab bo'ladi. Aksariyat hollarda, tez aytishlar "q" harfi bilan boshlanadigan so'zlardan tuziladi, chunki „q“ harfi bilan boshlanadigan so'zlarni bir-biriga bog'lash nisbatan osonroq. Yuqorida keltirilgan she'riy tez aytish orqali ham buning isbotini ko'rishimiz mumkin. Boshlang'ich sinf darsliklarida "q" harfi bilan boshlanadigan tez aytishlar juda ko'p. Ulardan ayrimlarini misol sifatida keltirsak:

“Qodir qaldirg'ochning qayrilgan qanotiga qaradi” (1-sinf uchun darslik)

“Qarg'a qag'illar qar-qar,

Qirni qalin qor qoplar” (2-sinf uchun darslik, 82-bet)

Tez aytishlar bir-biri bilan o'zaro mazmunan bog'langanligini ko'rishimiz mumkin (haqiqatan Qodir qaldirg'ochning qayrilgan qanotiga qarashi mumkin, so'zlar o'z o'rnida qo'llanganligi bois, o'quvchi nutq jarayonida qiynalmay talaffuz eta oladi).

Shu o'rinda, 2-sinf o'qish darsligidagi tez aytishlar bilan bog'liq xatolikni ham aytib o'tishimiz darkor. Darslikni ko'zdan kechiradigan bo'lsak, bitta tez aytish ikkita o'rinda keltirilganining guvohi bo'lamiz. Misol uchun, 2-sinf “O'qish” darsligining 35- sahifasida berilgan “Ergash Erkinga ergashdimi, Erkin Ergashga ergashdimi? tez aytishi shu darslikning 140-sahifasida ham berilgan. 89- betda berilgan “Sardorning sayroqi sariq sa'vasi subhidamda sayraydi” tez aytishining aynan o'zi 149- sahifaga ham ko'chirilgan. Bu kabi kamchiliklarga yo'l qo'yilishi joiz emas. Zero, kichik kamchiliklar yig'ilishi oqibatida katta xatolar kelib chiqishi muqarrar.

Maqola bolalar nutqini o'stirishda tez aytishlarning o'rni nechog'lik ahamiyatli ekanligi to'g'risidagi munozaralar muhokamasiga yo'naltirilgan. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tez aytishlarni bolalar nutqini o'stirish vositasi

sifatida qo'llash naqadar o'rinli. O'quvchilar maktabga qadam qo'ygan davridayoq xalqning o'lmas merosidan, ma'naviyat sarchashmasidan, ya'ni xalqog'zaki ijodi namunalaridan bahramand bo'lishadi. Ularning ma'naviy olamini bezashda, o'qituvchilarning o'rni beqiyosdir. Shu sababli, boshlang'ich ta'lim yo'nalishini tanlagan bo'lajak o'qituvchilar xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi anglab yetishi va nazariy-ilmiy jihatdan bilimlarini yanada oshirib bormog'i lozim. Shundagina o'qituvchi xalq og'zaki ijodi namunalarini ta'lim-tarbiya bilan bog'lay oladi. Zero, boshlang'ich ta'lim ona yurtimizni buyuk davlat darajasiga ko'taradigan, har tomonlama zukko yoshlarning yetishib chiqishida eng mustahkam poydevor hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ergash Shodmonov, Tal'at G'afforova, Gulbodom Eshturdiyeva. O'qish kitobi, 1-sinf uchun darslik. – Toshkent -2019.
2. Gafforova Tal'at, Nurillayeva Shaxlo, Mirzahakimova Zebiniso. O'qish kitobi, 2-sinf uchun darslik. – “Sharq” nashriyoti, Toshkent-2018.
3. Nabijon Ermatov. “99 topishmoq va tez aytishlar”. – Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston milliy kutubxonasi, Toshkent- 2013.
4. Axmedova D.B., Eshqulova G.R. Miraziz A'zam – Vatan istiqlolini kuylagan shoir. “Uzacademia” ilmiy-uslubiy jurnal. Vol 2, Issue 1, March2021. – 124-131-betlar.